



**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQ
MALAKALARINI OSHIRISH**

Safarboyeva Munajat Abdusharip qizi

Nukus DPI Ellikqal'a pedagogika
fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalish talabasi.

Tel:94-778-09-39

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14179713>

Annotatsiya Boshlang'ich ta'lim bosqichida og'zaki nutqni,yozma savodxonligini shakllantirish o'quvchilarning kelgusidagi maqsad va vazifalarini muvaffaqiyati amalga oshirishga turtki bo'ladi.Buning uchun biz pedagoglar bolaning nutqini oshirishda turli metodlar,ro'lli o'yinlar, baliq skeleti kabi ko'rgazmalar,munozaralar va ijodiy topshiriqlardan foydalanish muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, og'zaki nutq, yozma savodxonlik, nutq malakalari, ko'rgazmalar, metodlar, ro'llio'yinlar, munozara, ijodiy topshiriqlar

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki nutq hamda yozma savodxonlikni shakllantirish malakalarini rivojlantirish nafaqat ularning o'qishdagi muvaffaqiyatini ta'minlash, balki shaxsiy rivojlanishiga, kasb tanlashiga, kelajakda o'ziga ma'qul sohada ketishiga ham zamin yaratadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bolalar til qobiliyatlari va ifodaviy nutq malakalarini o'zlashtirishga juda moyil bo'lganligi sababli, samarali pedagogik yondashuvlar orqali og'zaki nutqni rivojlantirish o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismidir. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutq malakalarini rivojlantirish usullari va uslublari, pedagogik yondashuvlar hamda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsion metodlar tahlil qilinadi.Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga, mazmunini tushuntirishga, oqilganini qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilmagan. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuzga, qiroat bilan o'qishga, katta e'tibor berilgan. Shuning uchun, hozir maktablarda o'qish izohli o'qish olib borilyapti.[1]

Boshlang'ich sinfda og'zaki nutq malakalarini rivojlantirishning ahamiyati og'zaki nutqni rivojlantirish muhimligi bir necha omillar bilan bog'liq. Birinchidan, o'quvchilarning fikrlash va kommunikativ qobiliyatlari shakllanishi, ularning o'z fikrlarini aniq,lo'nda va ixcham ifodalash qobiliyatiga ega bo'lishlariga yordam beradi. Ikkinchidan, bolalar og'zaki nutq orqali atrof-muhitni angelaydi, turli mavzularda o'z fikrlarini bildirishni hamda tafakkur qilishni o'rganadi, bu esa,ularning ijtimoiy muhitga tezroq moslashuvini





ta'minlaydi. Og'zaki nutq malakalarini rivojlantirish uchun boshlang'ich sinf davrida amalga oshiriladigan faoliyatlar bola shaxsining barkamol rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Darsda o'qilgan asarni o'quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmuni va g'oyasini anglab yetishi uchun analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullardan foydalaniladi. O'qilgan asarni analiz qilishning har xil usullari mavjud. Bolalar hikoyadagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytib o'qituvchi rahbarligida asar rejasini tuzadilar[2]

Og'zaki nutqni rivojlantirishda samarali metodlar

1. Interaktiv metodlar: O'quvchilarning og'zaki nutq malakalarini rivojlantirishda interaktiv metodlar, jumladan, guruhda, juftlik bo'lib va kichik guruhlardagi faoliyatlar samarali hisoblanadi. Bu usullar o'quvchilarning o'z fikrlarini ochiq ifoda etish va boshqalarni tinglash malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Rolli o'yinlar: Rolli o'yinlar bolalarni turli rolda muloqot qilishga o'rgatadi. Masalan, savdogar va xaridor roli, masalan, har xil sabzavotlarning shakliga yoki mazasiga qarab topishi o'zi fikrlab aniq javob bera olishi ham bolalarning nutqiga ta'sir o'tkaza oladi. Hamda do'stlar orasidagi suhbat, oilaviy rollarni ijro etish orqali ular turli mavzularda nutq tuzishni mashq qiladi. Hozirgi darsliklar rasmlar asosida shakllangan bo'lib, bu bolalarning fikrlashiga olib keladi, ya'ni rasm asosida ishchilarga ism qo'yishi, nima ish qilganligini ko'rib ular asosida matn tuzish orqali bolaning nutqining oshishiga katta yordam beradi. Bu usul o'quvchilarning qiziqishini oshirish bilan birga ularning muloqot ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

3. Munozara va bahs-munozaralar: Turli mavzularda munozaralar, darslik asosida savol-javoblar o'tkazish bolalarni o'z nuqtai nazarlarini himoya qilishga, javobni aniq, lo'nda hamda nutqini ravon ifoda etish o'rgatadi. O'qituvchi rahbarligida o'tkaziladigan munozaralar orqali bolalar argumentlarni shakllantirish, so'z tartibiga rioya qilish va tinglash madaniyatini o'rganadilar.

4. Ijodiy topshiriqlar: Og'zaki nutqni rivojlantirish uchun o'quvchilarga ertak, hikoya yoki shaxsiy xotiralari asosida qahramonlarni tasvirlash, ularning fe'l-atvori va harakatlarini tavsiflash kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchilar o'z tasavvurini rivojlantiradi, so'z boyligini kengaytiradi va nutq ravonligini oshiradi.

5. Texnologik resurslardan foydalanish: Audio va video materiallar o'quvchilar nutq malakalarini rivojlantirish uchun yordam beradi. Masalan, qisqa videoroliklarni tahlil qilish, hikoyalarni eshitish orqali o'quvchilar o'z





nutqlarini to'g'ri shakllantirish va yangi so'zlarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqlaridagi nuqsonlarni bartaraf etish o'quvchilar va logopedlar zimmasiga yuklanadi. Talaffuzdagi kamchiliklarni aniqlashda bolaning nutqini tekshirib ko'rish, nutq buzulish sabablarini o'rganish lozim. Buning uchun har bir bola nutqini tekshirish varaqasi to'ldirilib, qaysi tovushlar to'g'ri yoki noto'g'ri talaffuz qilayotgani belgilab boriladi. Nutq ostirish- ongli o'qishni, so'zlash va yozishga o'rgatishni, til haqida o'quvchilarning yoshi va tushunchasiga mos bo'lgan bilim berishni, ularning lug'at boyligini oshirishni, boshqalarning nutqiga e'tibor va qiziqishni o'stirish, kitob o'qishga muhabbat uyg'otishni ko'zda tutadi. Nutq kompetensiyasini rivojlantirishning samarali jarayonini loyihalash izchil va tizimli tadqiqot metodologiyasini talab qiladi. Quyida ushbu sohadagi ilg'or tadqiqotlar uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan metodologiya keltirilgan. Birinchi bosqich muayyan aniq muammolarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Bu nutq kompetensiyasining rivojlanish darajasini baholash, asosiy muammolarni aniqlash, shuningdek, o'quv jarayonida erishish kerak bo'lgan aniq maqsadlarni belgilashni o'z ichiga olishi mumkin. Hozirgi holat tahlilini o'tkazish boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy malakalarini rivojlantirishning mavjud uslubiy, o'quv dasturlari va pedagogik yondashuvlarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqich mavjud amaliyotdagi taraqqiyot va muammolarni aniqlashga yordam beradi. Ob'ektiv ma'lumotlarni olish uchun zarur bo'lgan iskala loyihalarida qo'llaniladigan tadqiqot usullarini aniqlash. Bularga kuzatish, test o'tkazish, suhbatlar, shuningdek, tekshirish malakasi darajasini o'lchash uchun standartlashtirilgan testlar usullari kiradi. Tasdiqlangan tadqiqot tahlillari asosida sizning kompetensiyangizni rivojlantirish uchun zamonaviy usullar, texnologiyalar va yondashuvlarni o'z ichiga olgan o'quv dasturlari ishlab chiqiladi. Dasturda darslar ham, darsdan tashqari mashg'ulotlar ham bo'lishi mumkin. Loyihalash jarayonini amalga oshirish eksperimental bosqichda sodir bo'ladi. Bu erda ishlab chiqilgan dasturlarda ko'zda tutilgan darslar, tadbirlar va o'qitishning boshqa shakllari o'tkaziladi. [4]

O'qituvchi rolining ahamiyati

O'qituvchi og'zaki nutqni rivojlantirish jarayonida asosiy rol o'ynaydi. U o'quvchilarga o'zlarini erkin ifoda etishga imkoniyat yaratib, o'ziga ishonch hosil qilishiga yordam beradi. O'qituvchi bolalarni rag'batlantirish, ularni tinglash va qadrlash orqali ularning nutqiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq texnikasini shakllantirish





jarayoni ham uning psixik xolati bilan aloqador jarayondir. Bu yoshdagi bolalarda nutqiy buzilishlar xodisasi tez-tez uchrab turadi. Masalan:

- tez shoshib gapirish;
- noto'g'ri nafas olish;
- nutqda duduqlanish;
- so'zlarni chalkashtirib yuborish.

Bu nutqiy buzilishlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida asosan ikki sabab, fiziologik va psixologik ta'sit natijasida vujudga keladi.[5]

Xulosa

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutq malakalarini oshirish pedagogik faoliyatnin asosiy jarayonining bir qismidir. O'quvchilarni interaktiv metodlar, rolli o'yinlar, ijodiy topshiriqlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda samarali muloqotga jalb qilish orqali ularning nutq qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Shuningdek, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ijobiy muloqot muhitini yaratish va ularni rag'batlantirish, o'zlariga bo'lgan ishonchlarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Soyibova Shahnoza To'lqinovna Narzullayeva Elmira Qahramon qizi Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari.
- 2.Mohigul Toshmurodova Boltayevna
3. K. Qosimova ,Safo Matchonov.... Ona tili o'qitish metodikasi Toshkent 2007. https://sg.docworkspace.com/d/sIDOF9_iFAquP3LkG
- 4.Nazarova Kamuna Farhod kizi, researcher at Tashkent University of Applied Sciences.https://sg.docworkspace.com/d/sIBSF9_iFAqK53bkG
- 5.Maxkamova Masturaxon Baxromjon qizi.https://sg.docworkspace.com/d/sIG-F9_iFAs673bkG

